



INKLYUZIV TA'LIMDA TIFLOPEDAGOGIKA O'QITUVCHINING O'RNI VA AHAMIYATI

Elchiyeva Nigina

Kimyo Xalqaro Universiteti

Namangan filiali Maxsus pedagogika

Yo`nalishi 1-kurs talabasi

niginaelchiyeva@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Tiflopedagogikaning nazariy asoslari, Tiflopedagogikaning maqsad va vazifalari, Tiflopedagogikaning subyekti va obykti, Tiflopedagogikaning tamoyillari to'g'risida fikrlar boradi.

Kalit so'zlar: Savodga o'rgatish, matematika, jismoniy tarbiya, mayda qo'l motorikasini rivojlantirish, atrof olam bilan tanishtirish, musiqa, predmet tasavvurini shakllantirish, logopediya, badiiy adabiyot, nutq o`stirish.

Annotation

This article discusses the theoretical foundations of typhlopedagogy, the goals and objectives of typhlopedagogy, the subject and object of typhlopedagogy, and the principles of typhlopedagogy

Keywords: Literacy, mathematics, physical education, development of fine motor skills, introduction to the world around us, music, formation of subject perception, speech therapy, fiction, speech development.

Tiflopedagogika (yunoncha, typhlos ko'r va pedagogika) — defektologiyaning ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarni o'qitish, tarbiyalash hamda ularni mehnatga tayyorlash masalalarini ishlab chiquvchi sohasi. Bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishni, umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lishlarini, hayot va mehnatga tayyorlashni maqsad qilib qo'yadi.



Tiflopedagogika ko‘r va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ta‘limni takomillashtirish yo‘llarini, o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish metodlarini, maxsus maktab hamda maktabgacha muassasalar tuzilmasini, ularning ta‘lim-tarbiyasining tashkiliy shakllarini ishlab chiqadi. Tiflopedagogikaning eng muhim vazifasi bolalarda saqlanib qolgan ko‘rish imkoniyatlaridan o‘qish jarayonida to‘g‘ri foydalanish va uni rivojlantirish, ko‘rish imkoniyatlarini saqlash uchun sharoit vujudga keltirish, ta‘limning texnika vositalarini qo‘llashdan iborat.

Tiflopedagogika umumiy va maxsus pedagogika, psixologiya, fiziologik optika, oftalmologiya, pediatriya, maktab gigiyenasi, oliy nerv faoliyati fiziologiyasi, tilshunoslik, tiflotexnika fani ma‘lumotlariga suyanadi. O‘zbekistonda 2002/03 o‘quv yili ko‘rlar uchun 8 (1,4 ming o‘quvchi), zaif ko‘radigan bolalar uchun 3(0,6 ming o‘quvchi) maktab ishladi.

Respublikamizda shu vaqtgacha ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi maxsus maktab-internatlar mavjud bo‘lsada ushbu maktablarda yetarli darajada tiflopedagog o‘qituvchilar va o‘quv dasturlarining yetishmasligi kuzatilayotgan edi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi “Alohida ta‘limga ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860 sonli qarorida belgilangan vazifalarning ijrosini ta‘minlash, O‘zbekistonda alohida ta‘limga ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish, ularga ko‘rsatiladigan ta‘lim xizmatlari sifatini yaxshilash borasidagi muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va pedagogik psixologik respublika tashxis markazi tomonidan tiflopedagog o‘qituvchilarni qayta tayyorlash kurslari va “Inklyuziv ta‘lim laboratoriyasi” tashkil etilib, inklyuziv ta‘lim maktablari va ommaviy maktablarda tashkil etilgan korreksion sinflar uchun moslashtirilgan adaptiv dasturlar tuzish ishlari yo‘lga qo‘yildi.

Ko‘zi ojiz o‘quvchilar ta‘limi



Ko'zi ojiz o'quvchilarning kelajakdagi hayotga moslashuvi va o'z o'rnini topib, to'liq ish bilan ta'minlanishidagi muammolar doimiy ravishda barchamizni birdek tashvishga solib keladi. Bu muammo faqat birgina bizda emas butun dunyo mamlakatlarida kuzatiladi. Ushbu muammoli holatning yechimi maktabgacha ta'limdan boshlab korreksion rivojlantiruvchi va moslashib harakatlanish, o'z-o'ziga xizmat qilish ko'nikmalarini shakllantirish, qo'l motorikasini rivojlantirish atrof muhitda o'zini idora qilish va boshqa hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishga erishishdan boshlanishi zarur. Maktab ta'limi jarayonida barcha fanlarni o'qitish bilan bir qatorda, boshlang'ich sinflardan boshlab kasbga yo'naltirish, imkoniyati va iqtidoridan kelib chiqqan holda kasb tanlashishiga erishish zarur. Yuqori sinflarda "Kasb-hunar ta'limi" jarayonida o'quvchilar kasblar bo'yicha umumiy ma'lumot olish bilan bir qatorda qiziqqan va o'zi uchun tanlagan kasbi haqida chuqurroq ma'lumot olishi uchun sharoit yaratilgan bo'lmog'i zarur. Bolalarni maktabgacha va kichik maktab yoshidan boshlab kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini boshlash talab qilinadi. Bu ishlar ko'rishida muammosi bo'lgan o'quvchilarni kelajakdagi hayotlarida ish bilan ta'minlanishi uchun juda muhim hisoblanadi. Shu orqali ko'rishida muammosi bo'lgan o'quvchilarni ijtimoiy o'z o'rnini topishi, foydali mehnat bilan shug'ullanishi, ota-onaga qaramlikdan chiqishi va eng asosiysi nuqsonidan uyalmasligi hamda ozgina bo'lsada nuqsonini esdan chiqarishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, har bir o'quvchi o'zi haqida, o'zining qobiliyatlari va potentsiallari to'g'risida aniq tushunchalarni bilishi, zarur hollarda chetdan rivojlantirilishi kerak. Ko'rishida muammosi bo'lgan o'quvchilarga kasbiy bilim berish jarayonida quyidagilarga e'tibor bering:

o'z-o'zini anglashiga (kuchli va zaif tomonlari, maqsadlari, qiziqishlari va qobiliyatlari) yordam bering;

kasblarga oid xabardorlik;



ish izlash qobiliyatlari;

ishga tayyorlanish (e'lonlarni topib xabardor bo'lish, ma'lumot olish, o'zi e'lon yozish, maxsus treninglardan o'tish);

Nogironligi bo'lgan o'quvchilarni ish bilan ta'minlash va bandlikka ko'maklashish markazlarini topish.

Ko'zi ojizlik ko'zi ojiz o'quvchilarga o'zlari uchun zarur bo'lgan ijtimoiy jarayonlarni, xatti-harakatlarni kuzatishi va hayotiy ko'nikmalarni o'rganishga xalaqit beradi. Ko'zi ojiz o'quvchiga sog'lom tengdoshlari tevarak-atrofdagi voqealarni kuzatish va modellashtirish, ko'z bilan ko'rish orqali tabiiy ravishda o'rganadigan ijtimoiy va hayotiy ko'nikmalarni o'rgatishlari kerak.

Buning uchun:

O'quvchini o'qituvchi va suhbat bo'layotgan tomonga qarab o'tirishini va yuz bilan qarashga o'rgatish lozim;

Ko'zi ojiz o'quvchilarda ko'zni tinmay qimirlatishi yoki takroriy ishqalash kabi holatlar bo'lishi mumkin. Bunday holatlar ijtimoiy hayotda boshqa insonlar bilan o'zaro aloqa bog'lash jarayonlariga xalaqit berishi mumkin. Shuning uchun doim psixolog va ko'z shifokorlaridan professional maslahatlar olib turish maqsadga muvofiqdir;

Odatda o'quvchi ko'pincha kimdir uni jalb qilguncha jimgina kutib turadi. Shuning uchun ko'zi ojiz o'quvchini sog'lom tengdoshlari suhbat jarayoniga yoki o'yin faoliyatiga undashi kerak.

O'quvchiga boshqalarning shaxsiy menini tushunishga va hurmat qilishga yordam berish, shuningdek, boshqalardan xushmuomalalik bilan o'z shaxsiy maqomini hurmat qilishni so'rashi kerak bo'ladi;

Ko'zi ojiz o'quvchi ma'lumot olish va aniq tushunchalarni shakllantirish uchun obyektlarni taktik jihatdan o'rganishi kerak. Biroq, o'quvchi obyektga tegish mumkin bo'lgan maqbul vaqtni, ayniqsa, tegishli va noo'rin jismoniy aloqa bilan bog'liq bo'lgan narsalarni o'rganishi kerak;

O'quvchiga o'z ehtiyojlarini yetkazib berishga undash;



O'quvchini turli xil jamoaviy bo'lib bajariladigan ishlarda qatnashishga undash;

Og'zaki bo'lmagan muloqot qobiliyatlarini o'rgatish juda muhimdir ya'ni: mimika, tana harakati va imo-ishoralarini izohlashda yordam berish;

-O'quvchi faqat o'z ustida ishlashi va shaxsiy namunali odob-axloqini namoyon qilishni bilishi kerak;

-O'quvchiga his-tuyg'ularni aniqlashda va ularni ijtimoiy maqbul usullarda ifoda etishga yordam berish;

-O'quvchi muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish;

-O'quvchini o'zini o'zi to'g'ri anglashini rivojlantirishi kerak;

-O'quvchini o'zining ko'zi ojizligini his qilmaslikka undash kerak;

Ko'zi ojiz o'quvchi unga nisbatan tengdoshlarining munosabatidan xabardor bo'lishi va unga javob berishni o'rganishi kerak;

o'quvchilar balog'at yoshini bosib o'tish jarayonida o'spirinlar uchun maslahat va yordam beriladi. Shaxslararo munosabatlar, tanishish, notanish insonlar haqida bilib olishadi. Ular ushbu vaqt oralig'ida mumkin bo'lmagan faoliyat turlari haqida bilib olishlari shu jumladan, avtotransport vositalarini boshqarish imkoniyati yo'qligini tushunib yetishlari, tengdoshlari orasida bola o'zini qabul qilishi uchun xulq-atvor, madaniyat, muomala, hurmat-izzat katta ta'sir ko'rsatishini bilishi lozim. Bu ayni vaziyatda o'quvchi uchun o'z-o'zini qiyofasini shakllantirish juda muhimdir.

Inklyuziv ta'lim o'qituvchisi - zamonaviy o'qituvchi qiyofasida: Hozirgi kunda innovatsion bilim, malaka hamda ko'nikmalar bilan qurollangan zamonaviy inklyuziv ta'limga jalb etilgan o'qituvchi xuddi ommaviy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglar qatori, tashqi ko'rinish madaniyatiga e'tibor bilan qarashi va o'zida zamon talabi darajasidagi tashqi qiyofani odat qilishi maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi o'quvchilarga, va ijtimoiy hayotda har qanday sohada faoliyat olib borayotgan insonlarga o'rnak



bo'lishi zamon talabi deb hisoblanman. O'qituvchining tashqi qiyofasi, ya'ni kiyinish uslubi ko'pincha uning ichki dunyosi, madaniyatini aks ettiradi, ya'ni toza, ozoda, qulay, ko'zga tashlanmaydigan zamonaviy o'qituvchi qiyofasi, madaniyatini o'zida aks ettirgan bo'lishi o'quvchilar uchun ibrat bo'lib qoladi. O'qituvchining butun qiyofasi bolalarni o'quv jarayonidan chalg'itmasligi - pedagog oldiga qo'yilgan asosiy talablar sirasiga kiradi. Ushbu o'rinda Rashod Nuri Guntekinning "Choli qushi" asarini eslash joiz deb o'ylayman. Chunki asarda Feride ismli muallima qizning ko'rinishi, o'zini tutishi, muomala va munosabat madaniyatini eslaylik.

O'qituvchining nutqi hamma vaqt o'zbek adabiy tilini o'zida aks ettiruvchi, zamonaviy texnika, texnologiya, xalqaro qabul qilingan terminologiyalardan to'g'ri va o'rinli ravishda qo'llashi, bu hozirgi kun va zamon talabi. Agar o'tiladigan dars mashg'uloti mavzusi o'qish, hikoya, roman yoki doston bo'lsa, u obrazga kirib, yorqin, ya'ni rolga kirib, bolaning qalbiga kirib boradigan darajada qiziqтира olishi talab etiladi. Agar mashg'ulot mavzusi og'zaki bayon etish, tushuntirishdan iborat bo'lsa, nutq tekis, ravon, bir maromda va osoyishta bo'lishi maqsadga muvofiq. Butun jarayonda o'qituvchi o'z nutqining grammatik va leksik savodxonligiga e'tibor bergan holda sustkashlikka yo'l qo'ymasdan, kerakli o'rinda obrazli qilib, o'quvchilar havas bilan taqlid qiladigan darajada to'g'ri, til ko'nikmalariga kuchli e'tibor qaratilishi lozim. Shu o'rinda inklyuziv ta'lim jarayonida alohida ehtiyojli o'quvchilarning nutqini to'g'ri va savodli egallashi uchun aynan o'qituvchiga taqlid qilish orqali amalga oshirilishi hisobga olinishi, birinchi o'rinda turishi lozim.

Inklyuziv ta'lim jarayonida o'qituvchi maksimal darajada xushmuomalalik va sabr-toqatni namoyon qilishi, qo'pollik va hurmatsizlikka mutlaqo yo'l qo'ymasligi talab qilinadi. O'quvchi bilan muloqot do'stona ruhda, optimistik kayfiyatda bo'lishi talab etiladi.

O'qituvchining bolalarga berayotgan har qanday ma'lumotida insonparvarlik, samimiylik aks etib turishi, inklyuziv ta'limda faoliyat olib borayotgan bunday



o'qituvchi bilan bir marta muloqotga kirishgan shaxs (ota, ona, bola) da u bilan suhbatlashish, muammolari bilan dardlashish istagi paydo bo'ladigan bo'lsin. Shunda ko'zlangan maqsadga tez va samarali erishish mumkin. Inklyuziv ta'limda faoliyat olib boradigan o'qituvchi to'g'ridan-to'g'ri muloqot qobiliyati, gnostik ko'nikma, didaktik mahorat, o'yin qobiliyati, tashkiliy ko'nikmalar, kommunikativ-rejissyorlik, prognostik va aks ettirish qobiliyatlari hamda ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Undan tashqari doimiy ravishda motivatsion ko'nikmalarni ham rivojlantirib borishi, ya'ni o'quv jarayonida bolalar nima uchun va nima o'rganayotganliklarini va bu qanday yordam berishi mumkinligini anglashi, ularning istak va xohishlarini aniqlay olishi lozim. Nogironligi bo'lgan bolalar bilan ishlaydigan inklyuziv ta'lim o'qituvchisini tayyorlash jarayonida inklyuziv ta'limga o'tkazilishi va taqsimlanishi uchta asosiy tizimidan iborat bo'lishi kerak:

ta'lim mazmuni – bu tizimda zarur kasbiy bilimlar aks etadi. O'qituvchi o'zining mutaxassisligini egasi va puxta bilim sohibi bo'lishi talab qilinadi; bo'lajak inklyuziv sinf o'qituvchisining kasbiy mahorat tizimini mukammal darajada shakllantirish tushuniladi;

hozirgi zamon talabidan kelib chiqib dars jarayonlarini kasbga yo'naltiruvchi ruhda hayot va amaliyotga bog'lagan tarzda tizimli qilib olib borish nazarda tutiladi.

Inklyuziv ta'lim o'qituvchisining kasbiy va shaxsiy tayyorgarligi uchun zarur ko'nikmalar:

inklyuziv ta'lim nima ekanligini tushunish, uning an'anaviy ta'lim shaklidan farqi nimada ekanligi?

inklyuziv ta'lim muhitida bolalarning psixologik holati, yoshi va shaxsiy xususiyatlarini bilishi;

Sog'lom va nogironligi mavjud bo'lgan bolalarni birgalikda o'qitish uchun o'quv jarayonini psixologik, pedagogik, didaktik loyihalash usullarini bilishi;



ta'lim muhitining barcha sub'ektlari (har bir bolalar bilan individual va guruhda ishlash, ota-onalar, hamkasblar, mutaxassislar, menejment vakillari bilan) o'rtasida turli xil pedagogik hamkorlik usullarini amalga oshirish qobiliyatini mavjud bo'lishi;

Inklyuziv ta'lim o'qituvchisining kasbiy faoliyat yo'nalishlari;

Oldini olish;

Tashxis qo'yish va maslahat berish;

Pedagogik ta'lim berish;

Psixologik va psixoterapevtik yordamda ishtirok etish;

Ta'lim va ijtimoiy-pedagogik faoliyatda faol ishtirok etish;

Ta'limni tashkil etish va boshqarish;

O'qitish faoliyati;

Inklyuziv ta'limda zamonaviy bilim va texnologiya bilan qurollangan tiflopedagog faoliyati. Biz rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar bilan ishlaydigan insonparvar o'qituvchining eng muhim kasbiy ahamiyatli xususiyatlari qanday bo'lishi kerak degan savolga quyidagicha javob beramiz: Rahmdil, insoniy munosabatlar, bolalar uchun foydali bo'lish istagi, o'zini o'zi qadrlash, hamdardlik, kuchli mas'uliyat, sabr-toqat, bag'rikenglik, stressli vaziyatlarga nisbatan bag'rikenglik, rivojlanishida muammosi bo'lgan bolaning shaxsiga hurmat hissini o'zida jamlash kabilardir.

Ko'rish qobiliyati cheklangan bolalarni tarbiyalash va o'qitish bilan umumta'lim maktablarida tiflopedagog o'qituvchilar shug'ullanadi. Tiflopedagog o'qituvchisi inklyuziv ta'lim joriy qilingan tashkilotlarda faoliyat yuritishi uchun maxsus (korreksion xonalar, ko'rishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limi uchun texnik vositalar) sharoitlar yaratilgan bo'lishi va ko'rishida muammosi bo'lgan bolalarning ta'limi bilan faqatgina tiflopedagog o'qituvchi shug'ullanishi ko'zda tutilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:



1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"

2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya byerish tizimini yanada takomillashtirish chora-

tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-son qarori.

3. Inklyuziv umumta'lim maktablari kamsituvchi munosabatlariga qarshi kurashish va jamoalarda qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratish, inklyuziv jamiyat

qurish va barchaga ta'lim byerishning eng samarali vositasi sifatida Salamanka bayonoti. (Ispaniya), 1994-yil 7-10-iyun.

4. "Dakarskie ramki deystviy"- Senegal, 2000-yil 26-28-aprel

5. U.Fayziyeva va boshqalar. "Tiflopedagogika" o'quv qo'llanma, "Sano-Standart" nashriyoti, Toshkent-2011.